


## 2022- yil yanvar-avgust oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrida jami **20 010,7** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o’sish sur’ati 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **103,1 %** ni




### 2022- yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.



**Ma’lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2022- yil yanvar-avgust oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

2022- yil 1-sentabr holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 9,7 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 9,4 mingtani tashkil etib, o'tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 520 taga ko'paygan.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan bino va inshootlar qurilishi ishlari hajmi 104,0 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 62,1 %) ni tashkil qildi, fuqarolik obyektlarini qurish 89,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 20,4 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 119,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 17,5 %) Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Bino va inshootlar qurilishi bo'yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-avgust oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 117,6 % ni tashkil etdi.




## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.09.2021- yil	01.09.2022- yil	
<b>Toshkent shahar</b>	<b>8847</b>	<b>9367</b>	<b>520</b>
tumanlar:			
Uchtepa	643	660	17
Bektemir	186	220	34
Yunusobod	1125	1149	24
Mirzo Ulug'bek	1130	1181	51
Mirobod	810	861	51
Shayxontoxur	702	740	38
Olmazor	743	771	28
Sergeli	483	504	21
Yakkasaroy	909	949	40
Yashnabod	804	897	93
Yangihayot	189	244	55
Chilonzor	1123	1191	68



## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.09.2022- yil holatiga




**Ma'lumot uchun:** Toshkent shahrida qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Chilonzor (12,7 %), Mirzo Ulug'bek (12,6 %) va Yunusobod (12,3 %) tumanlaridir.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 6 840,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 100,3 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 34,2 % ni tashkil qildi.




## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



**Maʼlumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Yunusobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **51,2 %**), Uchtepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **49,1 %**), Shayxontohur tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **47,1 %**), Bektemir tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **44,1 %**)ga toʼgʼri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-avgust oylari
- 2022- yil yanvar-avgust oylari


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **58,9 %**i bajarilib, 2021-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **3,6 %** punktga ko'paygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,5 %** ni tashkil etgan holda **11 792,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **6,9 %** ni tashkil etib, **1 378,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **76,6 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **461,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **67,6 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **2,3 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **19 548,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati **104,4 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **97,7 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar-avgust

**62,8 %**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **62,8 %** yoki **8 308,5 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

**37,5 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **4 215,7 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **36,3 %** ni tashkil etdi.

**56,9 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **6 772,0 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **58,2 %** ni tashkil etdi.

**5,6 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **641,7 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **5,5 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2022- yil yanvar-avgust oylarida**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘sish sur’ati, %da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)</b>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>20 010,7</b>	<b>103,1</b>	<b>11 629,4</b>
tumanlar:			
Uchtepa	1 263,0	75,2	640,4
Bektemir	661,2	124,7	379,1
Yunusobod	3 591,8	108,8	2212,4
Mirzo Ulug‘bek	2 077,6	94,5	1159,6
Mirobod	2 327,8	103,3	1315,7
Shayxontoxur	1 478,8	108,4	976,0
Olmazor	1 219,2	86,6	725,8
Sergeli	915,2	101,1	461,3
Yakkasaroy	1 757,7	105,5	917,4
Yashnabod	1 845,2	125,2	1001,5
Yangihayot	736,2	114,3	499,4
Chilonzor	2 137,0	107,9	1340,8

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda



## Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,%da

2021- yil yanvar-avgust

15,1



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

23,5



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

61,4



Bino va inshootlarni  
qurilishi

2022- yil yanvar-avgust

17,5



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

20,4



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

62,1



Bino va inshootlarni  
qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2022- yil yanvar-  
avgust oylarida

Toshkent shahrida qurilish ishlari




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **31,3 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **109,7 %** ni tashkil etdi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-avgust oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **109,5 %** ni tashkil qildi, ulushi esa **57,6 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021-yilning yanvar-avgust oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **73,3 %**ni tashkil qildi, ulushi esa **11,1 %**ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **44,6 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **72,7 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **55,4 %** ni va 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **109,5 %** ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-avgust oylarida


Toshkent shahrida qurilish ishlari



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **32,3 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **146,7 %** ni tashkil etdi. **67,7 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **109,5 %** ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-avgust oylarida

Toshkent shahrida qurilish ishlari



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust

### Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)


Yunusobod t.  
3 591,8

1

2  
Mirobod t.  
2 327,7

Mirzo Ulug'bek t.  
2 137,0

3



### Eng kichik hajm (mlrd. so'm)

Bektemir t.  
661,2



1

2  
Yangihayot t.  
736,2

Sergeli  
915,2

3



## TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



**Toshkent shahar  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Aloqa telefoni: (71) 203-88-18(19)*

**2022- yil yanvar-  
avgust oylarida**

**Toshkent shahrida qurilish ishlari**